



FAVQULODDA VAZIYATLARLARNING OLDINI OLISH VA ZARARLARNI MINIMALLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNIK VOSITALAR

Kamolov Abdullo Abdurazzokovich

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
guruh komandiri*

Abduvoitov Zuxriddin Matniyoz og'li

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
kursanti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi asrimizning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelayotgan, shuning bilan bir qatorda og'ir oqibatlariga olib keluvchi tabiiy va texnogen holatlarda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va zararlarni minimallashtirishda eng ilg'or texnik vositalardan biri hisoblangan, UUA (Uchuvchisiz uchuv apparatlari)larni qo'llash va harakat tizimini ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqilgan.*

Аннотация: *В данной статье БПА (Беспилотные летательные аппараты) рассматриваются как одни из наиболее совершенных технических средств обеспечения безопасности граждан и минимизации ущерба в природных и техногенных ситуациях, имеющих тяжелые последствия, которые становятся одним из актуальных вопросов нашей время рассматриваются вопросы разработки системы применения и действия.*

Abstract: *In this article, UUAs (Unmanned Aerial Vehicles) are considered one of the most advanced technical means for ensuring the safety of citizens and minimizing damages in natural and man-made situations that have serious consequences, which are becoming one of the urgent issues of our time. issues of application and action system development are considered.*

Kalit so'zlar: *Favqulodda vaziyat, texnik vosita, uchuvchisiz uchuvchi apparat, dron, tabiiy ofat, texnogen ofat, stixiyali ofat, epidemiya, epizootiya, strategiya, transchegara, urbanizatsiya, dastur, detector, pult operatori, antenna, radiouzatgich, radioqabulqilgich, kvadrokopter, dvigatel.*

Ключевые слова: *Чрезвычайная ситуация, техническое средство, беспилотный летательный аппарат, дрон, стихийное бедствие, техногенная катастрофа, стихийное бедствие, эпидемия, эпизоотика, стратегия, трансграничная, урбанизация, программа, детектор, телеоператор, антенна, радиопередатчик, радиоприемник, квадрокоптер, двигатель.*

Key words: *Emergency situation, technical tool, unmanned aerial vehicle, drone, natural disaster, man-made disaster, natural disaster, epidemic, epizootic, strategy, cross-border, urbanization, program, detector, remote control operator, antenna, radio transmitter, radio receiver, quadcopter, engine.*






Xar bir inson Favqulodda vaziyat atamasini eshitganda vujudida qo'rquv va taxlika uyg'onadi. Bu atama O'zbekiston Respublikasi qonunchilik xujjatlarida quyidagicha ta'riflanadi. Favqulodda vaziyat — bu muayyan hududda o'zidan so'ng odamlarning qurbon bo'lishi, odamlar sog'lig'i yoki atrof-muhitga ziyon yetkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar hamda uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, stixiyali ofat, epidemiyalar, epizootiyalar natijasida yuzaga kelgan holatdir. [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" qabul qilindi. Ushbu qabul qilingan strategiyaning yettinchi yo'nalishi "Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish" nomi bilan ataldi. Ushbu yo'nalishning 92-maqsadi sifatida qabul qilingan "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimlarini yaratish" asosiy maqsadlar sifatida tanlab olindi.

Biz ushbu maqolada harbiy kuch tuzilmalarimizga yangi zamonaviy va ilg'or texnikalardan hisoblangan UUA (Uchuvchisiz uchuv apparatlari)ni keng targ'ib qilish shuning bilan bir qatorda xarakat tizimini ishlab chiqish masalasiga e'tibor qaratib o'tganmiz. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini kamaytirish va samarali bartaraf etish aholining tinch va xavfsiz hayot kechirishini ta'minlash, mamlakatni rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu qurilmalar bizga ishlash tizimi bo'yicha oddiydek ko'ringanligi bilan imkoniyatlari anchagina keng hisoblanadi. Shuning bilan bir qatorda So'nggi yillarda dronlar tobora ommalashib bormoqda. Ular hamma joyda qo'llanila boshlandi: havoda, suvda va quruqlikda. Butun dunyo olimlari uchuvchisiz qurilmalarga katta umid bog'laydilar va kelajakda ulardan foydalanilmaydigan hudud qolmasligini kutishadi. Bugungi kunda ushbu qurilmalar yordamida favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududlarda qutqaruv ishlarini amalga oshirish hamda zararlarni minimallashtirish shuning bilan bir qatorda ushbu texnik vositalarning yuqori aniqlikka ega tasvirlari orqali hodisa yuz bergan joyda harbiy kuch tuzulma hodimlarining xavfsizligi va harkatlanish taktikasiga yuqori aniqlikni belgilab beradi. Uchuvchisiz uchuvchi apparatlarni favqulodda vaziyatlarda keng qo'llash eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ulardan foydalanish allaqachon o'z samarasini ijobiy tomondan ko'rsatib kelmoqda.





1.1 rasm UUA(Uchuvchisiz uchuvchi apparat)ning operator bilan bog'lanish strukturasi.

- Pult operatori UUA dasturiy taminotiga uzatuvchi antenna qurilmasi orqali buyruq signallarini yuboradi;
- UUA radioqabul qilgich qurilmasi radiouzatuvchi antennadan keladigan signallarni qabul qiladi va raqamli ko'rishga o'tkazib dasturiy taminotiga uzatadi;
- UUA olingan ma'lumotlarni detektor (signallarni qabul qiladi va raqamli ko'rishga o'tkazadi) qayta ishlab pult opertaoriga yuboradi;
- Pult operatori FV sodir bolgan joyni UUA yuqori aniqlikdagi tasvirlarini kuzatish orqali vaziyatni baholaydi.

Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlash, seysmik kuzatuvlar, kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish, suv obyektlarida fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini muhofoza qilish, shuningdek favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot obyektlari faoliyatining barqarorligini oshirish sohasidagi ilmiy-texnik va innovatsion siyosat olib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va maqsadli ilmiy-texnik dasturlarni tasdiqlash[2] kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi.

Biz ushbu maqolaning xulosa qismida shuni aytishimiz mumkinki Favqulotda vaziyatlar chog'ida ushbu vazifalarning bajarilishi yuqori sifatli qo'shimcha uskunalar bilan jixozlangan uchuvchisiz uchuvchi apparatlar, yuqori parvoz xususiyatlariga ega tasvirga olish hamda qutqaruv jixozlari bilan taminlangan, dasturiy ta'minoti ommaviy tartibsizliklar hamda tabiiy ofatlar vaqtida havf hududlari va yo'nalishlarini aniqlovchi xususiyatiga ega bo'lgan uchuvchisiz uchuvchi apparatlar jamiyat hayotiga ko'plab havf tug'diruvchi omillarni oldini olishda ko'plab yutuqlarga ega bo'lishimiz mumkin. Uchirishdan oldin UUAlar navigatsiya tizimi, foto va videokameralar (shu jumladan, teplovizorlar) bilan jihozlangan. Uskunalar hatto yomon ko'rish sharoitida ham bajariladigan yuqori aniqlikdagi batafsil tasvirlarni taqdim etadi. Misol tariqasida yong'inga qarshi uchuvchisiz samolyot 2018 yilda ixtironi faol sinovdan o'tkazishni boshlagan Latviya kompaniyasining ishlanmasidir. Qurilma kvadrokopter bo'lib, u 28 ta dvigatel va 16 ta akkumulyator bilan jihozlangan. Yong'inni dronga ulangan o't o'chirish shlangi yordamida o'chirish rejalashtirilgan. O't o'chiruvchi robotning asosiy





afzalligi - 300 m gacha balandlikni saqlab turish qobiliyati mavjud. Dronning ishlashi yerdan boshqarishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.04.2019 yildagi PQ-4276-son

2. [2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.06.2017 yildagi PF-5066-son "favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"

Ijtimoiy tarmoqlar:

<https://arden-freza.ru/uz/bespilotnye-letatelnye-apparaty-mchs-rossii-vidy-i-klassifikaciya.html>

<https://ru-bezh.ru/press-releases/41492-dronyi-oxranniki-zajmutsya-patrulirovaniem-territorii-gostinichn>

Дрон для охраны территории

<https://patriots.com.ua/uslugi/dopolnitelnye-uslugi/dron-dlya-ohrany-territorii/>

